



THE PRESENTATION OF SCIENTIFIC AND FIQH ISSUES IN AMIR SHOHMUROD'S WORK "FATAVAI AHLI BUKHARA"

Niso A. Subkhonova

Researcher, Department of Social Sciences and Physical Education

Bukhara State Technical University,

subxonova.niso@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fatwa, scholars, Islamic law, jurisprudence methodology, socio-cultural environment, religious and legal sources, analogy, ijma', Bukhara school of jurisprudence.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article analyzes the issues related to the coverage of science and jurisprudence (Islamic law) in the work "Fatavai ahli Bukhara". The methodology used by Amir Shahmurad in issuing jurisprudential fatwas, the method of presenting evidence, as well as the socio-religious environment formed among the Bukhara scholars are highlighted. During the study, the work analyzes the attitude towards science, the status of scholars, the detailed approach to jurisprudential issues, and the main jurisprudential sources used in making rulings (the Quran, hadith, ijma', qiyas). In particular, the issues in the work are described in connection with the historical and civil rights, financial relations, personal life, inheritance, marriage, crime, and punishment aspects that took place in the land of Bukhara. The work "Fatavai ahli Bukhara" is considered an important document that regulates not only religious, but also social and legal relations. This study aims to reveal the historical and jurisprudential significance of this work, to show the specific aspects of the Bukhara school of jurisprudence, and to study the approaches of scholars in issuing practical fatwas.

AMIR SHOHMURODNING "FATAVAI AHLI BUXORO" ASARIDA ILM VA FIQH MASALALARINING YORITILISHI

Niso A. Subxonova

Mustaqil tadqiqotchi

Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası
Buxoro davlat texnika universiteti,
subxonova.niso@gmail.com
Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Fatvo, ulamo, islom huquqi, fiqh metodologiyasi, ijtimoiy-madaniy muhit, diniy-huquqiy manbalar, qiyos, ijmoʻ, Buxoro fiqh maktabi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Fatavai ahli Buxoro” asarida ilm va fiqh (Islom huquqi) masalalarining yoritilishiga doir masalalar tahlil qilingan. Amir Shohmurod tomonidan fiqhiy fatvolar berishda qoʻllanilgan metodologiya, dalil keltirish uslubi, shuningdek, Buxoro ulamolari oʻrtasida shakllangan ijtimoiy-diniy muhit yoritib berilgan. Tadqiqot davomida asarda ilmga munosabat, ilm egalarining maqomi, fiqhiy masalalardagi tafsiliy yondashuv va hukm chiqarishda qoʻllanilgan asosiy fiqhiy manbalar (Qurʻon, hadis, ijmoʻ, qiyos) tahlil qilinadi. Ayniqsa, asardagi masalalar Buxoro diyorida kechgan tarixiy-fuqaro huquqlari, moliyaviy munosabatlar, shaxsiy hayot, meros, nikoh, jinoyat, va jazoga oid jihatlar bilan bogʻlangan holda bayon etilgan. “Fatavai ahli Buxoro” asari faqatgina diniy emas, balki ijtimoiy va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim hujjat sifatida baholanadi. Mazkur tadqiqot ushbu asarning tarixiy-fiqhiy ahamiyatini ochib berish, Buxoro fiqh maktabining oʻziga xos jihatlarini koʻrsatish va ulamolarning amaliy fatvo berishdagi yondashuvlarini oʻrganishga qaratilgan.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ НАУКИ И ФИКХА В ТРУДЕ АМИРА ШОХМУРОДА «ФАТАВАИ АХЛИ БУХАРА»

Нисо А. Субхонова

Исследователь

Кафедра общественных наук и физической культуры,
Бухарский государственный технический университет,
subxonova.niso@gmail.com
Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фетва, ученые, исламское право, методология юриспруденции, социально-культурная среда, религиозно-правовые источники, аналогия, иджма, Бухарская школа юриспруденции.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные с освещением науки и юриспруденции (исламского права) в труде «Фатаваи ахли Бухара». Освещаются методология, использованная Амиром Шахмурадом при вынесении фетв по юриспруденции, метод представления доказательств, а также

общественно-религиозная среда, сформировавшаяся среди бухарских учёных. В ходе исследования в работе анализируются отношение к науке, статус учёных, подробный подход к вопросам юриспруденции и основные источники юриспруденции, используемые при вынесении постановлений (Коран, хадисы, иджма, кийас). В частности, вопросы в труде описываются в связи с историко-гражданскими правами, финансовыми отношениями, личной жизнью, наследованием, браком, преступлениями и наказаниями, которые имели место на земле Бухары. Труд «Фатаваи ахли Бухара» считается важным документом, регулирующим не только религиозные, но и социально-правовые отношения. Целью данного исследования является раскрытие историко-правового значения данного произведения, показ специфики бухарской школы юриспруденции, а также изучение подходов ученых к вынесению практических фетв.

Kirish

Markaziy Osiyoda islomiy tafakkur va fiqhiy merosning shakllanishida Buxoro diyorining tugan o'ri beqiyosdir. Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi hududida fiqh ilmi nafaqat madrasa muhitida, balki davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda ham shunday ahamiyat kasb etgan. Shu davrga oid muhim manbalardan biri - "Fatavai ahli Buxoro" asari bo'lib, u Buxoro ulamolari tomonidan jamiyatning turli qatlamlariga oid fiqhiy savollarga berilgan fatvolar to'plamidan iboratdir.

Mazkur asar nafaqat diniy-maslahat xususiytiga ega, balki, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muhitini yorituvchi manba sifatida ham alohida e'tiborga loyiqdir. Asarda keltirilgan fatvolar orqali Buxoro fiqh maktabiga xos metodologik yondashuv, hujjatli dalillash, Qur'on va hadis asosida hukm chiqarish, shuningdek, qiyos, istihson va urf kabi manbalardan foydalanish aniq ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, asarda ilm va olimning maqomi, diniy bilim-gach bo'lgan yo'l, fatvo beruvchining mas'uliyati va ilmning ijtimoiy ahamiyati ham alohida yoritilgan. Bu jihatlar "Fatavai ahli Buxoro"ni nafaqat fiqhiy, balki, ma'naviy va tarixiy meros sifatida ham tahlil qilishga imkon beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - fiqhiy merosimizdagi ushbu nodir asarning o'ri va ahamiyatini aniqlash, uni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirish orqali chuqurroq anglashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolani yozishda XVIII - XIX asrda yaratilgan asarlardan hamda maqolalardan ilmiy manba sifatida foydalanildi. Ayniqsa, amir Shohmurodning yozgan “Fatavai ahli Buxoro” asarining qo’lyozma nusxasidan kengroq foydalanildi. Bundan tashqari Ahmad Donishning “Mang’itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang’itiya”, Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, J.Shodiyevning “Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi”, A.Zamonov, A.Egamberdiyevning “Buxoro amirligi tarixi”, Z.Muqimovning “O’zbekiston davlati va huquqi tarixi”, Herman Vamberining “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” kabi asarlardan hamda Q. Rajabovning “Amir Shohmurod yohud “amiri ma’sum”, A.Zamonovning “Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba’zi mulohazalar”, O.Axmedovning “Buxoro mang’it hukmdorlarining ta’lim tarbiyadagi ibrati”, M.Umarovanning “Buxoro amiri Shohmurod ibn Doniyolbiyning hokimiyati legitimatsiyasi”, B.Yorbozorovning “Chet el sayyohlarining Amir Shohmurod siyosatiga munosabati” sarlavhali maqolalardan o’rinli tarzda qo’llanildi.

Natija. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, “Fatavai ahli Buxoro” asari XVIII - XIX asr ilmiy merosi va fiqhiy yondashuvning chuqur va boy qatlamlarini o’zida mujassam etadi. Tadqiqot davomida olib borilgan adabiyotlar tahlili, taqqosiy tahlil va matnshunoslik usullari asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- Buxoro ulamolari o’z fatvolarida faqat shariat qoidalariga suyanib qolmay, balki, zamon, sharoit va insonlar holatini hisobga olgan holda, ijtihodiy (mustaqil) yondashuvni ham qo’llaganlar. Bu esa o’z zamonasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy muammolarini hal etishda fatvolarning qanchalik moslashuvchan va dolzarb bo’lganligini ko’rsatadi;

- hukm chiqarishda tafsilotlarga chuqur e’tibor qaratis, ixtiloflar paydo bo’lsa, u holda eng kuchli dalilni dalilni tanlash va zarurat holatlarida muvozanatni saqlash tamouili ilgari surilgan. Har qanday hukmda adolat, ehtiyotkorlik va zamon talablari inobatga olingan;

- ilm faqat bilim emas, balki axloqiy va mas’uliyatli yondashuvni ham o’z ichiga oladi. Fosiq olimlar, johil tabiblar va firibgar savdogarlarning jamiyatga yetkazadigan zararini ochib berish orqali, ilm va axloqning ajralmas bog’liqligi alohida ta’kidlangan;

- fatvo berish yengil mas’uliyat emasligi, shoshqaloq va yuzaki hukmlar jamiyat uchun xavf tug’dirishi mumkinligi, haqiqiy olimlarning sabr va chuqur tafakkur bilan ish tutishi zarurligi uqtirilgan.

- asarda ilmni o’rganish bilan kifoyalanmasdan, uni hayotga tatbiq etish zarurligi, ilmning amaliyfoyda keltirishi kerakligi qayta-qayta ta’kidlab o’tilgan. Haqiqiy ilm faqat nazariy bilim emas, balki amal va halollik asosida namoyon bo’lishi kerak.

Fatvo va hukm chiqarishda ehtiyotkorlik, shoshilmaslik, haqni anilqashga intilish va halol ilm sohibi bo’lish bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ayniqsa, zamonaviy axborot

oqimi va soxta bilimlarning ko'paygan bir davrda tog'ri bilim va to'g'ri manbaga asoslanish zarurati yanada dolzarb bo'lmoqda.

Muhokama. "Fatavai ahli Buxoro" asarining tahlili shuni ko'rsatdiki, Buxoro ulamolari tomonidan berilgan fatvolar o'z zamonasining dolzarb, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarini hal etishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Asarda ilgari surilgan fatvolar nafaqat shariat qonunlarini qo'llash, balki mavjud shart-sharoit va urf-odatlariga mos ijtihodiy yondashuvni tatbiq etish orqali yuqori darajadagi huquqiy moslashuvchanlikni ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, Fiqh va huquqiy tafakkurda hukm chiqarish asosiy masala bo'lib, bu ishning muhimligi hamma uchun ravshandir. Hukm chiqarishda vaqt, sharoit va insonlar holati e'tiborga olinishi lozim. Ba'zan masalalar murakkab bo'lishi mumkin, shuning uchun huquqiy tafakkurda tafsilotlarga e'tibor berish lozim. Hukm chiqarishda haqiqatni tanlash va eng to'g'ri qarorga kelish uchun hikmat zarur. Fiqhiy tafakkur orqali haqni aniq ajratish, yaxshi va yomonni farqlash muhim ahamiyatga ega. Ba'zi masalalarda hukmda tafovutlar bo'lishi mumkin, shuning uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilish lozim. Agar ixtilof bo'lsa, eng kuchli dalil tanlanishi kerak va eng maqbul qaror qabul qilinishi lozim. Zarurat bo'lsa, ba'zi yengilliklar qo'llanilishi mumkin, lekin haddan oshib ketmaslik shart. Eng maqbul huquqiy yo'l - to'g'ri hukm chiqarish va har qanday ortiqcha ziddiyatlardan qochishdir. Hukm chiqarishda yaxshi xulq va muomala muhim bo'lib, qozilar odobiga rioya qilish shart.

Bu asar huquqiy tafakkur, ijthod va hukm chiqarishda ehtiyotkorlik zarurati haqida bo'lib, quyidagi asosiy tushunchalarni yoritadi:

- Fiqhiy tafakkur va huquqiy hukm chiqarish eng asosiy masalalardan biri bo'lib, u inson hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun hukm chiqarishda zamon, sharoit va insonlar holati e'tiborga olinishi lozim. Ba'zan fiqhiy masalalar murakkab bo'lishi mumkin, shuning uchun tafsilotlarga chuqur e'tibor berish lozim.

Hukm chiqarishda haqiqatni ajratish va hikmat bilan to'g'ri qarorga kelish kerak. Fiqhiy tafakkur yaxshi va yomonni farqlashga xizmat qilishi kerak. Ba'zan hukmlarda tafovutlar bo'lishi mumkin, lekin eng kuchli dalilga tayanish kerak. Bu fiqhiy tafakkurning shaxsiy fikrdan ko'ra dalillarga asoslanish tamoyilini mustahkamlaydi.

- Ba'zi holatlarda yengillik berish mumkin, lekin u haddan oshmasligi kerak.
- Hukm chiqarishda ortiqcha ziddiyatlardan qochish va to'g'ri yo'l tanlash muhim.
- Qozilar o'z odobiga rioya qilishi kerak, chunki ularning hukmlari jamiyat uchun asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islom huquqiy tizimining nafaqat ilmiy, balki axloqiy tamoyillarga ham asoslanganligini ko'rsatadi.

Bu asarda inson ilm va axloqning ajralmasligini yana bir bor ta'kidlaydi. Haqiqiy ilm nafaqat bilimga, balki halollik va mas'uliyatga ham asoslanishi kerak. Yomon axloqli yoki

taqvodan yiroq bo'lgan kishining ilmi jamiyatga foyda emas, balki zarar keltirishi mumkin. Bu tamoyil nafaqat diniy fatvo berishda, balki har qanday sohada amal qilishi lozim. Matnda shuningdek, fatvo berish mas'uliyat bilan bog'liq ekanligi aytilgan. Fatvo berish – bu shunchaki fikr bildirish emas, balki insonlarning hayotiga, dunyoviy va oxirat saodatiga ta'sir qiladigan hukm chiqarishdir. Shu sababdan, har qanday odamga tayanish yoki beparvo fatvolarni qabul qilish insonlarni xatoga boshlashi mumkin. Bundan tashqari, matnda munofiqlardan fatvo olishning noto'g'riligiga urg'u berilgan. Chunki bunday kishilar dinni chuqur tushunmaydi yoki undan faqat o'z manfaatlari uchun foydalanishi mumkin. Bu, o'z navbatida, insonlarni adashishga olib boradi. Bugungi kunda ham, har qanday ilm sohasida, xoh diniy bo'lsin, xoh ilmiy yoki huquqiy, insonlar o'z bilim manbalarini ehtiyotkorlik bilan tanlashi kerak. Noto'g'ri manba yoki yo'ldan ozdiruvchi ilmlar insonni haq yo'ldan uzoqlashtirishi mumkin. Shuning uchun, har qanday hukm yoki qaror qabul qilishda insonning shaxsiy halolligi va ilmiy mas'uliyati muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari jamiyatning axloqiy va ilmiy inqirozining sabablarini yoritadi. Aslida, insoniyat tarixida uchta katta muammo mavjud: ilmni noto'g'ri ishlatadigan olimlar, johil tabiblar va yolg'onchi savdogarlar. Ushbu uch toifa kishilar jamiyatning axloqiy va ilmiy jihatdan buzilishiga sabab bo'ladi:

1. Fosiq olimlar: Ilmni o'z manfaatlari uchun ishlatadigan olimlar jamiyatga eng katta zarar yetkazadi. Chunki ularning so'zlariga ishonadigan odamlar noto'g'ri yo'nalishda yurishi mumkin. Haqiqiy olim – ilimli bo'lishi bilan birga, halol va adolatli bo'lishi kerak.

2. Johil tabiblar: Tibbiy ilmsiz bo'lish, lekin tabiblik da'vosida yurish insonlarning hayoti bilan o'ynashdir. Bunday kishilar bemorlarga noto'g'ri davo qilib, ularning hayotini xavf ostiga qo'yadi.

3. Firibgarlar: Savdo yoki boshqa sohalarda o'z manfaatini ko'zlab, odamlarni aldovga soladiganlar jamiyatning iqtisodiy va axloqiy buzilishiga sabab bo'ladi. Matnda Imom Abu Hanifaning hikmatli so'zi ham keltirilgan: ilimli inson o'z ilmiga mas'uliyat bilan yondashmasa, u butun jamiyatga zarar yetkazishi mumkin. Chunki yuqori lavozimdagi johil kishi o'z noto'g'ri qarorlari bilan jamiyatni halokat sari yetaklashi mumkin.

Bugungi kunda ham bu fikrlar dolzarbdir. Axloqiy inqiroz, noto'g'ri ilm, yolg'on axborot va mas'uliyatsiz tibbiyot jamiyat uchun katta xavf tug'diradi. Shuning uchun ilimli bo'lish bilan birga, uni to'g'ri ishlatish ham inson uchun muhim mas'uliyat hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda ilm va fatvo berish mas'uliyatini chuqur yoritib beradi. Ayniqsa, shoshqaloqlik va yuzaki fatvo berishning xavf-xatarini ochib beradi. Ilm odamning faqat bilimi emas, balki uning sukut saqlash va tafakkur qilish qobiliyatini ham anglatadi. Qadimgi ulamolar, chuqur ilm sohiblari bo'lishlariga qaramay, sukutni afzal bilganlari bejiz emas. Chunki haqiqiy bilim, inson o'z bilimining chegaralarini anglaganida yuzaga keladi. Tezkor va yuzaki javob berish

insonni yengillikka, hatto, yolg'on va xatolarga boshlashi mumkin. Shu sababdan, bu matn hamma zamonlarda dolzarb bo'lib qoladigan, chuqur hikmatga ega bo'lgan pand-nasihat sifatida qabul qilinishi mumkin.

Olim fatvo berishga shoshmasligi, balki u haqiqiy haqiqatni anglab yetishi kerak. Ilm sohibi taqlidga berilmay, balki o'z tafakkuri va dalillarga tayanishi lozim. Salaf olimlari og'ir vaziyatlarda sukut saqlaganlar va faqat so'ralganidagina javob berganlar. Ular, Alloh ularga rahmat qilsin, so'ralmaguncha gapirmaganlar, va agar so'ralsa, javob berish uchun avval to'g'ri yo'lni topganlar. Agar javob berishga majbur bo'lsalar ham, avval tafakkur qilib, keyin javob berishgan. Har qanday ishda shoshilmasdan, sukut bilan haqiqatni anglash yo'liga kirishganlar. Imom A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh ham, agar bir masala og'ir bo'lsa, u haqida o'ylab, uzoq vaqt sukut saqlaganlar. Uning xotirjamligi va sabri haqiqatni topishga yordam bergan. Bunday hollarda u, so'ralgan savolning to'g'ri javobini topmaguncha, sukut saqlar edi. Ey Alloh, bizni haqiqatdan uzoq tutma! Agar adashsak, bizni afv et, zero Sen bilguvchisan, biz esa o'jiz bandalarmiz!

Asarda ilm ahlining sabr va tafakkur bilan harakat qilishi kerakligini eslatadi. Ilm faqat bilim yig'ish emas, balki o'sha bilimni to'g'ri ishlatish, uni anglash va uning og'irligini his qilish demakdir. Fatvo berish yoki muhim masalalar haqida fikr bildirish yengil mas'uliyat emas. Haqiqiy olimlar, avvalo, sukut bilan tafakkur qiladi, shoshqaloqlik qilmaydi, faqat haqiqatni to'g'ri tushunib yetgach gapiradi. Imom A'zam Abu Hanifa singari buyuk allomalar, o'z fikrlarini darhol bildirmasdan, avval masalaning mohiyatini chuqur anglashga harakat qilishgan. Bugungi kunda ham har qanday sohada mutaxassislar, olimlar va yetakchilar bu saboqni o'zlariga qo'llashlari lozim. Tezkor va yuzaki xulosa chiqarish insonni xatoga eltadi, ammo sukut va tafakkur insonni haqiqatga yaqinlashtiradi.

Amir Shohmurod "Fatavai ahli Buxoro" asarida aslida, ilmning qanchalik chuqur va mas'uliyatli ekanini, uni faqat yengil yelpi o'rganish emas, balki tafakkur va sabr bilan anglash lozimligini alohida eslatadi. Ilmni haqiqat uchun emas, dunyoviy manfaatlar uchun ishlatish insonni halokatga eltadi. Alloh taologa toat bilan mashg'ul bo'lish – eng afzal yo'ldir. Shayx Abu Bakr Muhammad ibn al-Sakkof juda ko'p duo qilardi, deyiladi asarda. U oxirat oldidagi so'nggi kasalligida shunday degan edi: "Ey Alloh, men sendan bir lahza bo'lsa ham tavba qilish imkoniyatini so'rayman". Shu so'zlarini aytib, jon taslim qildi. Bundan guvoh bo'lishimiz mumkinki, ilm bilan amaliyot ajralmas bo'lishi lozim. Ilmni faqatgina o'rganish bilan kifoyalanmay, uni hayotda tatbiq qilish kerak. Shofi'iy rahmatullohi alayh ham shunday degan: "Men ilm odamlariga foyda berishini, insonlar undan manfaat ko'rishini istayman".

Xulosa. "Fatavai ahli Buxoro" asarining tahlili shuni ko'rsatadiki, fiqhiy tafakkur va hukm chiqarish jarayoni nafaqat shariat hukmlarini qo'llash, balki zamon, sharoit va inson holatlarini

chuqur tahlil qilish, ehtiyotkorlik, tafsilotlarga e'tibor va hikmatga asoslanishini talab qiladi. Ushbu asar orqali Buxoro ulamolari ijtihodiy yondashuv va huquqiy moslashuvchanlikni o'z davrining dolzarb ehtiyojlariga mos ravishda amalga oshirganliklarini ko'rish mumkin.

Ushbu asarda fiqh va huquqiy tafakkurda shoshilmaslik, sukut va tafakkurga tayanish, har bir hukmni chuqur o'ylab chiqarish zarurati qat'iy ta'kidlanadi. Haqiqatni tanlash, ixtilofda eng kuchli dalilni afzal ko'rish, zarurat va muvozanatni saqlash kabi tamoyillar, islom huquqiy tafakkurining poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, hukm chiqaruvchi shaxsning axloqiy tozaligi, taqvosi va ilmga mas'uliyatli yondashuvi, jamiyat barqarorligi va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

“Fatavai ahli Buxoro” asarida fosiq olimlar, johil tabiblar va yolg'onchi savdogarlar jamiyat inqiroziga sabab bo'ladigan asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan bo'lib, bu - ilm va axloq ajralmasligini yana bir bor ta'kidlaydi. Bugungi kunda ham har qanday sohada, ilmiy yoki huquqiy faoliyatda mas'uliyat, halollik va tafakkur asosiy qadriyat bo'lib qolmoqda. Shunday qilib, ushbu asar faqatgina o'z davri uchun emas, balki bugungi zamon uchun ham muhim saboq va pand-nasihat manbai bo'lib xizmat qiladi. Undagi asosiy g'oya shuki: ilm va fatvo faqat bilim bilan emas, balki halollik, sabr, tafakkur va Allohdan qo'rqish bilan uyg'un holda bo'lishi kerak. Asar bizni har qanday hukm va qarorni chuqur o'ylab, adolat va mas'uliyat bilan qabul qilishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Donish. (2014). Risola yohud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Amir Shohmurod ibn Doniyol Ma'sum. Fatavai ahli Buxoro. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv.raqam: 5804.
3. Axmadov, O. (2023). Buxoro mang'it hukmdorlarining ta'lim-tarbiyadagi ibrati. Education and Innovation Research, (7), 8.
4. Herman Vamberi. (2019). Buxoro yohud Movarounnahr tarixi (2-jild). Toshkent: INFO CAPITL GROUP.
5. Muqimov, Z. (2003). O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Toshkent: Adolat.
6. Mulla Olim Maxdum Hoji. (2009). Tarixi Turkiston. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Rajabov, Q. (2006). Amir Shohmurod yohud “amiri mas'um”. Buxoro mavjlari, (1).
8. Shodiyev, J. (2010). Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. Toshkent: Toshkent Davlat Yuridik Instituti.
9. Umarova, M. Amir Shohmurod ibn Doniyolbiyning hokimiyati legitimatsiyasi.
10. Yorbozorov, B. (2023). Chet el sayyohlarining Amr Shohmurod siyosatiga munosabati. Международный научный журнал, (6) (часть 1), январь.

11. Zamonov, A. (2020). Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba'zi mulohazalar. O'tmishga nazar.
12. Zamonov, A., & Egamberdiyev, A. (2022). Buxoro amirligi tarixi. Toshkent: tamaddun.